



XORIJIY TILNI O'RGANISHDA TALABALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Tarix va Filologiya fakulteti Tarix yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Saydullayeva Iroda

Annatosiya: Xorijiy til o'rganish, zamonaviy ta'lrim tizimining eng muhim qismlaridan biridir. Bu jarayon nafaqat yangi so'zlar va grammatikani o'rganishni, balki talabalarning fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. O'rganilayotgan tilni samarali va muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun, talabalar faolligini oshirish, ularni til o'rganish jarayonida faol ishtirok etishga undash juda muhimdir. Til o'rganishda talabalar faolligini rivojlantirish, nafaqat ular uchun til o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, balki kommunikativ kompetensiyalarini ham shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, global dunyoda Shu sababli, xorijiy tilni o'rganishda talabalar faoliyatini rivojlantirish, o'qitish metodlarining yangilanishi va interaktiv yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bu maqolada xorijiy tilni o'rganishda talabalar faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati, metodlari va uni amalga oshirish yo'llari haqida so'z yuritiladi. muvaffaqiyatli kommunikatsiya o'rnatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: Xorijiy til, chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish, qonun, xorijiy ekspertlar, leksika, kommunikativ kompetensiyalar, interaktiv yondashuvlar, kommunikatsiya, strategik resurs, lug'at, samarali yondashuvlar, praktik mashg'ulotlar, grammatik qoidalar.

Jahondagi tillar - biror bir jamiyatning shaxsiyatini, millatini va undagi avlod yoshlarini ma'daniy-ma'naviy shakllantirishning asosiy elementidir. Tillar nafaqat aloqa vositasi, balki millatning ajralmas qismidir, ma'lum bir jamiyatdagina tegishli bo'lgan boylikdir. Shu sababdan ham inson intellektual va ma'naviy ta'limning



ahamiyatini anglashi uchun chet tilini mukammal bilishi talab etiladi.¹ Agar xorijiy tilni talabalar faoliyatidagi biror bir bo'g'ini va ajralmas qismi sifatida qarasak, bu tilning ahamiyati yanada kuchayadi. Xorijiy til, talabalar hayotining turli jabhalarida ularga katta imkoniyatlар yaratishi bilan birga ular uchun muhim strategik resurs bo'lib xizmat qiladi. Xorijiy tilni talabalar faoliyatida faol rivojlantirish uchun ularning bu tillarda bilim darajasini oshirish lozim. Chet tilini egallamoqchi bo'lgan talaba o'rganilmish til bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradi².

- I.Nutq faoliyati turlari (4 ta asosiy va 6 ta qo'shimcha).
- II. Til materiali (leksiya ,grammatika ,talaffuz).
- III.Lingvistik bilimlar (leksikologiya, grammatika,fonetika).
- IV.Chet til o'qitish metodikasi (nazariy kurs, amaliy mashg'ulot va maktab , litsey va kollejda dars berish -pedagogika amaliyoti).

Talabalar ingliz tilidagi so'z boyliklarini yaxshi o'zlashtirmay tureb uni o'z faoliyatlarida rivojlantira olishmaydi. Tilni lug'at tarkibini egallah o'quvchi va talabalarning dunyoqarashani yanada kengaytiradi. Ularning fiologiyaga oid bilim va tajribalarini oshiradi. Ma'lum tilning lu'gat tarkibiga kiruvchi so'zlar leksikasi deyiladi. Leksika tilning rivojlantiruvchi elementi hisoblanadi.³

Ingliz metodisti Gerlad Palmer esa quyidagi prinsiplarga asoslanib lug'at tuzgan:

- 1.So'zlar birinchi ma'nosiga qarab lug'atga kiritiladi.
- 2.Ko'p so'z yasash qobiliyatiga ega bo'lgan o'zak so'zlar tanlab olinadi.
- 3.Boshqa so'zlar bilan munosabatga oson kirishadigan so'zlar .
- 4.Ko'p uchraydigan so'zlar.

Bu bilan aytmoqchiki, Palmer o'quvchi va talabalarning lug'atidagi so'z boyliklarini oshirishlari orqali chet tillarini oson o'rganish mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi

¹ Dilnoza Otaxanova. Xorijiy tilni intensiv o'qitish // o'quv qo'llanma. 2023;35-bet.

² Jamol Jalolov .Chet til o'qitish metodikasi "o'qituvchi" nashiryot-matbuot ijodiy uyi .Toshkent -2012.B:356.

³ Djumali Shabanov .Chet tilini o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari.Toshkent -2009.B:48.



o‘tkazildi. Yig‘ilishda tizimdagи muammolar atroflicha tahlil qilinib, ustuvor vazifalar belgilandi.

– Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqtি-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasи huzurida Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etilishi ma’lum qilindi. Bu Agentlik dunyoda samarali natija bergen o‘qitish metodikalari, dastur va darsliklarini ta’lim tizimida joriy etib, xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirishga ko‘maklashadi. Ta’lim muassasalari, tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilini o‘rgatishni tashkillashtiradi.

Shuningdek, vazirlik, idora va boshqa ish beruvchilar bilan birga, xizmatchilarning kasbiy faoliyatini xorijiy tillarda to‘liq amalga oshirish imkoniyatini beradigan metodikalarni ishlab chiqib, sharoitga moslagan holda, amaliyotga joriy etadi.

Davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish metodikalarini yaratish ham uning asosiy vazifalaridan biri bo‘ladi.

Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir nechta yo‘nalishi tanlab olinib, alohida e’tibor bilan rivojlantirilmoqda. Bu yil fizika va chet tillari ana shunday ustuvor sohalar etib belgilangan.⁴

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish va mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish hamda ushbu sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida

⁴ <https://president.uz/oz/lists/view/4327>.



Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi.Ushbu qarorda ko'tarilgan mavzularga to'xtalib o'tsak:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o'rghanishni ommalashtirish agentligining (keyingi o'rinnlarda — Agentlik) “2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan Xalq ta'limi vazirligiga Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg‘armasi uchun ajratiladigan mablag‘lar hisobidan Agentlikning budjetdan tashqari jamg‘armasiga (keyingi o'rinnlarda — Jamg‘arma) bir martalik 15,0 mlrd so‘m miqdoridagi moliyaviy ko'mak mablag‘larini ajratish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Moliya vazirligi 2023-yildan boshlab har yili Agentlikning asoslangan hisob-kitoblariga muvofiq Davlat budjeti parametrlarida Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish uchun zarur mablag‘larni nazarda tutsin.

2. Belgilansinki, Jamg‘armaga Davlat budgetidan ajratilgan mablag‘lar quyidagi maqsadlarda foydalanish buyurildi xususan :dunyo bo'yicha samarali natija bergen o'qitish tizimi metodikalari, dastur va darsliklarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari va o'quv markazlarida joriy etish;xorijiy davlatlarda chop etiladigan zamonaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni, xalqaro testlar va ularni joriy qilish uchun tegishli ruxsatnoma va litsenziyalar, xorijiy tillarni o'rgatishga qaratilgan kontentlarni mualliflik huquqlarini xarid qilish;

xorijiy tillarni o'rghanishni ommalashtirish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, dasturiy ta'minot loyihibalarini ishlab chiqish va joriy etish;xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o'yin, ko'ngilochar ko'rsatuv, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontent yaratish;fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan mahalliy va xorijiy ekspertlarni jaib etish;

3.2023-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha, umumiyl o'rta, o'rta maxsus va professional, shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari chet (ingliz,



fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu hind) tili fani o‘qituvchilarining attestatsiyasi jarayonida o‘quv fani bo‘yicha malaka sinovlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan tinglab tushunish, o‘qish, yozish hamda gapirish ko‘nikmalarini baholashni nazarda tutuvchi kasbiy sinov shaklida o‘tkaziladi.

4.2022-yil 1-mayga qadar vaqt mobaynida: Agentlik Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda xorijiy tillarni bilish va xorijiy til o‘qituvchilarining malaka va ko‘nikmalarini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarning Yagona elektron bazasini ishlab chiqsin va amaliyotga joriy etsin.⁵

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-sonidagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagagi PQ-200-son “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi qaror qiladi:

1. Xorijiy tillar va umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi ushbu milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining 2021-yil 31-avgustdagi 1-mh va 23-mh-son “Xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlarning ro‘yxatini hamda xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan

⁵Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 09/22/34/0048-son; 20.10.2022-y., 09/22/612/0949-son; 23.12.2024-y., 09/24/848/1049-son)



olingan sertifikatlar o'rtaсидаги мувоғиқлик дарajasини тасдиqlash to'g'risida"gi qarori (ro'yxat raqami 3318, 2021-yil 7-sentabr) (Qonunchilik ma'lumotlari).⁶

Xorijiy tilni o'rganishda talabalar faoliyatini rivojlantirish bir nechta samarali yondashuv yo'llari mavjuddir. Quyida ular haqida ba'zi fikrlar imni keltirib o'tsam:

1. Interaktiv metodlar: Talabalar o'rgatish jarayonida passiv o'quvchilardan faol o'quvchilarga aylanishi uchun interaktiv usullarni qo'llash muhim. Bu usullar orqali talabalar o'z fikrlarini ifoda etish, suhbatlarga qatnashish va guruh ishlari bajarish orqali tilni faol o'rganadilar. Masalan, rolli o'yinlar, munozaralar yoki til bo'yicha quizzlar talabalarni qiziqtiradi.

2. Kommunikativ yondashuv: Xorijiy tilni o'rganish faqat grammatik qoidalar va lug'atni o'rganish bilan cheklanmasligi kerak. Asosiy e'tibor tilni muloqot vositasi sifatida o'rganishga qaratilishi lozim. Talabalar suhbatlarni olib borish, fikr almashish va turli vaziyatlarda to'g'ri javob berishni o'rganishlari kerak.

3. Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Mobil ilovalar, til o'rganish dasturlari va onlayn resurslar talabalar uchun o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Masalan, "Duolingo", "Memrise", "HelloTalk" kabi ilovalar yordamida talabalar tilni interaktiv tarzda o'rganishlari mumkin.

4. Praktik mashg'ulotlar: Tilni o'rganishda faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliy mashg'ulotlar ham muhim. Talabalar o'z til bilimi va ko'nikmalarini real hayotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Misol uchun, tilni o'rganayotgan mamlakatdan kelgan mehmonlar bilan suhbatlar, tilni o'rganishga qaratilgan klublar va boshqalar.

5. Madaniyatni o'rganish: Xorijiy tilni o'rganishda, o'rgatilayotgan tilga xos madaniyatni tushunish muhim. Bu talabalarni tilni yanada chuqurroq o'rganishga undaydi, chunki til faqat so'zlar va grammatik qoidalardan iborat emas, balki madaniyat, urf-odatlar va qadriyatlar bilan bog'liq.

6. Individual yondashuv: Har bir talabaning o'rganish uslubi turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zilar vizual materiallarni yaxshi o'zlashtirsa, boshqalar eshitish yoki amaliy mashg'ulotlar orqali samarali o'rganadilar. Talabalar bilan individual suhbatlar

⁶ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2024-y., 10/24/3515/0376-son.



o'tkazish, ularning qiziqishlariga qarab darslarni tashkil etish, o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam beradi. Shu usullarni qo'llash orqali talabalar xorijiy tilni samarali va qiziqarli tarzda o'rganishlari mumkin.

Avvalambor Xorijiy tilni o'rganish nima uchun kerakligi va sabablarni yoritib o'tsam. Xorijiy tilni o'rganishning bir nechta muhim sabablari bilan bir qatorda foydali taraflari ham mavjuddir. Bu sabablarni keltirish, talabalarni til o'rganish jarayoniga jalg qilishda juda muhimdir. Quyida xorijiy tilni o'rganishning asosiy sabablari:

1. Bugungi kunda dunyo global tarmoq bilan bog'langan bir vaqtida xorijiy tilni bilish, boshqa mamlakatlar va madaniyatlar bilan aloqalar o'rnatish imkonini beradi. Bu nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki professional va biznes aloqalarini ham kuchaytirishga yordam bera olishidadir. Karyera imkoniyatlarini kengaytirish: Xorijiy tilni bilish ish bozorida juda muhim ustunlik yaratadi. Ko'plab xalqaro kompaniyalar va tashkilotlar, xususan, eksport va import bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, til bilgan mutaxassislarni qidiradilar. Xorijiy til bilimiga ega bo'lish, talabalar uchun kengroq ish imkoniyatlari ochadi. Madaniyat va dunyoqarashni kengaytirish: Xorijiy tilni o'rganish faqat so'zlarni o'zlashtirish emas, balki yangi madaniyatni, tarixni, an'analarni, hayot tarzini tushunishdan iboratdir. Bu esa odamlarning dunyoqarashini kengaytirish bilan bir qatorda boshqa xalqlarga nisbatan to'g'ri va hurmat bilan munosabat olib borishni shakllantiradi.

2. Intellektual rivojlanish: Xorijiy tilni o'rganish miyada faoliyatni oshiradi. Bu yangi so'zlar, grammatik qoidalar va tilning strukturasi bilan tanishish, xotirani va kognitiv qobiliyatlarni yaxshilaydi. Shuningdek, bir nechta tilni bilish miyaning turli qismlarini faollashtiradi va muammolarni hal qilishda yordam beradi. Ta'lif va ilmiy izlanishlar: Xorijiy tilni bilish talabalar uchun yangi ilmiy manbalar, maqolalar va kitoblarni o'qish imkoniyatini yaratadi. Bu ilmiy va akademik sohada yanada chuqurroq bilim olishga yordam beradi, yangi g'oyalar va fikrlarni o'rganishga imkon beradi. Xorijiy tilni o'rganish nafaqat professional rivojlanish uchun, balki shaxsiy o'sish, madaniyatlararo tushunishni chuqurlashtirish va yangi imkoniyatlarga ega bo'lish uchun ham muhimdir.



Xorijiy tilni talabalarida faoliyatida rivojlantirishning samarali yo'llari quyidagilar misol bo'ladi:

1. Amaliy mashg'ulotlar va suhbatlar: Talabalar tilni faqat nazariy ravishda emas, balki amaliy tarzda ham o'rganishlari kerak. Xorijiy tilni doimiy ravishda suhbatlarda, debatlarda va diskussiyalarda ishlatish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va nutq malakalarini rivojlantiradi.

2. Audiovizual materiallar: Kino, serial, videolar, musiqalar va podcastlar kabi audiovizual materiallarni ishlatish talabalar tilni yaxshiroq tushunishlari va talaffuzlarini yaxshilashlariga yordam beradi.

3. Tilni kundalik hayotda qo'llash: Xorijiy tilni kunlik hayotda, masalan, do'stlar bilan suhbatda, sayohatlarda yoki o'qish materiallarini o'qishda qo'llash tilni tezda o'rganishga yordam beradi.

4. Feedback va o'z-o'zini baholash: Talabalar o'zlarining til o'rganish jarayonini doimiy ravishda baholashlari va o'rganish jarayonidagi kamchiliklarni tahlil qilishlari kerak. Bu yondashuv ularga o'zining kuchli va zaif tomonlarini tushunishga yordam beradi.

5. Maqsadlar qo'yish va rejalashtirish: Til o'rganishning aniq maqsadlarini belgilash, o'rganish jarayonini rejalashtirish talabalarni motivatsiya qiladi va samarali o'rganishga yordam beradi.

Ushbu usullar orqali talabalar xorijiy tilni faqat nazariy o'rganish bilan cheklanmasdan, uni amalda samarali ravishda qo'llashni o'rganadilar.

Xulosa

Xorijiy tilni talabalar hayotida rivojlantirish orqali xulosa qilib aytganda, aniq faktlar asosida shuni ta'kidlash kerakki, xorijiy tilni o'rganish talabalar uchun global imkoniyatlarni yaratadi. Misol uchun, Global Kompetensiyalar Indeksi (GCI) bo'yicha til bilish ko'nikmalari yuqori bo'lgan shaxslar o'z sohalarida muvaffaqiyatli bo'lish ehtimoli 50% yuqori ekanligi statistikada isbotlangan. Xorijiy tilni o'rganish orqali talabalar nafaqat yangi madaniyatlar bilan tanishadi, balki global bozor va xalqaro tashkilotlarda ishlash imkoniyatlariga ega bo'lishadi. Dunyo bo'ylab ish



beruvchilarning 70% dan ortig‘i til bilishni muhim malaka sifatida ko‘rmoqda va bu talabalar uchun raqobatbardoshlikni oshiradi. Bunday til ko‘nikmalariga ega bo‘lgan talabalar nafaqat o‘z yurtida, balki chet elda ham ish topishda keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Bu faktlar xorijiy tilni talabalar hayotida rivojlantirishning ahamiyatini yanada ta’kidlaydi va uning shaxsiy, professional rivojlanishga qanday katta ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatib berad

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

I.NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR.

1. 1.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI, 19.05.2021 YILDAGI “XORIJUY TILLARNI O‘RGANISHNI OMMALASHTIRISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”GI 312-SONLI QARORI.
2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI, 19.05.2021 YILDAGI “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XORIJUY TILLARNI O‘RGANISHNI OMMALASHTIRISH FAOLIYATINI SIFAT JIHATIDAN YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”GI PQ-5117-SONLI QARORI.
3. [HTTPS://PRESIDENT.UZ/OZ/LISTS/VIEW/4327](https://PRESIDENT.UZ/OZ/LISTS/VIEW/4327).

MAXSUS ADABIYOTLAR

4. DILNOZA OTAXANOVA. XORIJUY TILNI INTENSIV O‘QITISH // O’QUV QO’LLANMA. 2023.
5. JAMOL JALOLOV .CHET TIL O‘QITISH METODIKASI “O‘QITUVCHI” NASHIRYOT-MATBUOT IJODIY UYI .TOSHKENT -2012.
6. DJUMALI SHABANOV .CHET TILINI O‘QITISH METODIKASI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI.TOSHKENT -2009.